

UDK 615.19; 615.213; 614.283

**O‘ZBEKISTON VETERINARIYA FARMATSEVTIKASIDA
QO‘LLANILAYOTGAN INSEKTITSIDLAR VA AKARITSIDLARNI
ASOSIY TASIR ETUVCHI MODDASI BO‘YICHA TAHLILI**

Madadjon Safarov, SamDVMChBU Toshkent filiali o‘qituvchisi

Fazliddin Jalilov, prof. DSc., Toshkent farmasevtika instituti

Nurali Abbosov, SamDVMChBU Toshkent filiali o‘qituvchisi

Saffullayeva Mahbuba, SamDVMChBU Toshkent filiali o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida mavjud insektitsidlar va akaritsidlar bozoriga kirib kelish dinamikasining ishlab chiqaruvchi davlatlar orasidagi taqsimoti, asosiy ta’sir etuvchi moddasi, ishlab chiqarilish shakli kabi ko‘rsatkichlari orqali kontent tahlili natijalari keltirilgan.

Kirish. Veterinariya, qishloq xo‘jaligi va sanoatning rivojlanishi, o‘simliklar, hayvonlar va sanoat binolarini zararkunanda organizmlardan himoya qilish, hayvonlarda hashoratlar va kanalar keltirib chiqaradigan kasalliklarni oldini olish davolash, uchun maxsus vositalar insektitsidlar va akaritsidlarni tayyorlash hamda ishlab chiqarishni qat’iy talab etadi [1].

Ishning maqsadi. O‘zbekiston Respublikasi veterinariya farmatsevtikasi bozorining ma’lum bir qismini tashkil etgan insektitsidlar va akaritsidlar guruhiga mansub kimyoviy va biologik himoya vositalarining toksikologik ahamiyatini inobatga olgan holda ushbu preparatlarning O‘zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida tutgan o‘rni tahlilini o‘tkazish.

Material va metodlar. O‘zbekiston Respublikasi veterinariya sohasida, qishloq xo‘jaligida qon so‘ruvchi hashoratlar va kanalar, o‘simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o‘tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari ro‘yxatida qishloq xo‘jaligida ishlatish uchun tavsiya etilgan hayvonlarni, o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari yaxlit ro‘yxatini, ulardan samarali va bezarar foydalanishning asosiy mezon va me‘yorlarini joriy etadi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi, Veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo‘shimchalar sifati va muomalasi nazorati bo‘yicha davlat ilmiy markazi saytida keltirilgan reestri ma’lumotlari asosida O‘zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida ishlatiladigan insektitsidlar va akaritsidlarning kontent tahlili amalga oshirildi[5].

Natijalar va ularning tahlili. Insektitsidlar va akaritsidlar asosiy ta’sir qiluvchi moddalari bo‘yicha tahlili o‘rganildi. natijalari shu ko‘rsatdiki asosiy ta’sir qiluvchi moddalari bo‘yicha tahlilida 15 nomdagi vositalarning turli nisbatlaridagi vositalari

ekanligi kuzatilib, ulardan eng ko‘p ivermektin moddasi saqlovchi dori vositalar bo‘lib, ular 23,7% ni tashkil qildi. Keyingi o‘rinlarni Sipermetrin, diazinon, fiprolin, siflutrin va boshqa insektitsidlar va akaritsidlar egallaydi.

Xulosa: Natijalardan ko‘rinib turibdiki O‘zbekiston Respublikasi veterinariya farmatsevtikasi bozorida asosiy ta’sir qiluvchi moddalari bo‘yicha tahlilida eng ko‘p ivermektin moddasi saqlovchi dori vositalar ekanligi kontent tahlilda aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Yu. Salimov, F.S. Jalilov, K.B. Hamzayev, M.B. Safarov. “Veterinariya farmakologiyasi” fani bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua, Toshkent-2022

2. M.B. Сафаров; Ф.С. Жалилов; Н.Н. Аббосов; Р.Қ. Нормаматов. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида ишлатиладиган инсектицидлар ва акарицидлар ва уларнинг қўлланилиш шакллари. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*. 2, 3 (May 2023), 36–41.

3. Yu. Salimov, F.S. Jalilov, K.B. Hamzayev, M.B. Safarov. “Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi” fani bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua, Toshkent-2022

4. M. B. Safarov, N. N. Abbosov, G‘. A. Mengliyev, K. B. Hamzaev, M. E. G‘oyipova F. S. Jalilov, L. T. Pulatova. O‘zbekiston bozorida o‘simliklar himoyasi uchun ishlatiladigan insektitsidlar va akaritsidlarning assortiment Tahlili. //International journal of agrobiotechnology and veterinary medicine jurnali 2022/12/26 Tom 2 B. 26-31.

5. <http://gnkc.uz/>

